

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## TASVIRIY SAN'AT ASARLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARINING BADIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Ibrohimova Iqboloy Tohirjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti "Amaliy va tabiiy fanlarni  
o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada madaniyat taraqqiyoti natijasida, xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy aloqalar rivojlanayotganligi singari, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga ortib borayotganligi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, o'qituvchi, pedagog, ta'lim, rang.

### Аннотация:

В этой статье анализируется растущий спрос на искусство в результате развития культуры, а также развития культурных и духовных связей между народами.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, учитель, педагог, образование, цвет.

### Annotation:

The article analyzes the growing demand for art as a result of the development of culture, as well as the development of cultural and spiritual ties between peoples.

**Key words:** art, teacher, educator, education, color.

Tasviriy san'atning nazariy masalalariga murojaat qilishimizning o'ziga xos maqsad va sabablari mavjud. Avvalo shuni aytilish joizki, bu masala ilmiy-pedagogik jihatdan, ayniqsa, o'zbek tilida batafsil tadqiq va talqin qilingan deb bo'lmaydi. Shuning uchun ko'pgina ilm vakillari, ziyolilarimiz, jumladan pedagoglar ham tasviriy san'atning tur, janrlari va o'ziga xos ko'rinishlarini ajrata olish bilimiga ega emaslar. Ayniqsa, bu narsa tasviriy san'at o'qituvchilari va pedagoglarimiz oldiga yanada mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Umuman, san'at tarixi va san'atshunoslik muammolari deyarli hamma sohadagi o'qituvchi kadrlar tayyorlashda muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda bu sohaga jiddiy e'tibor berilganini ko'ramiz. Amerikada ta'limning ilmiy asoslangan o'ziga xos jihatlari bo'lib, mavzumizga tegishli shunday dalillarni misol keltirish maqsadga muvofiq. "Bo'lajak o'qituvchilar o'zlari tanlagan" asosiy predmetlardan tashqari yana o'quv metodikasi, ta'lim psixologiyasi, musiqa, san'atshunoslik kabi predmetlarni ham o'rganadilar".<sup>1</sup> O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, eng ilg'or davlatlardan bo'lmish AQShda deyarli hamma fan o'qituvchilari san'atshunoslikdan bilim olar ekanlar. O'zbekistondagi tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash masalasini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Eng achinarli tomoni shundaki, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida ham badiiy tarbiya nazariyasining asoslarini ilmiy pedagogik jihatdan alohida o'rganadigan laboratoriya yoki bo'limning o'zi yo'q.

Shu boisdan ham, respublikamizda ayniqsa, o'zbek tilida ilmiy adabiyotlar uchramaydi. Pedagogika fanining bu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganishiga keladigan bo'lsak, tasviriy san'at o'qituvchilari mukammal nazariy bilimlarsiz bu borada ta'lim va tarbiya olib borishlari mumkin ham emas.

Har bir xalq, millat jahon san'atining ravnaqiga qaysidir darajada o'z ulushini qo'shib kelgan. Yangi-yangi ijodiy izlanishlar evaziga san'at namunalari vujudga kelgan. Xalqlar, millatlar, shuningdek, davrlar san'ati bir-biriga qo'shib borib rivojlanadi, o'zgacha namunalarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham san'atda yangicha oqimlar, yo'nalishlar, uslublar shakllanmoqda.

Darhaqiqat, tasviriy san'at tushunchasini uning zamonaviy namunalaridan orqada qolmasdan o'zlashtirmog'imiz, o'quvchi va yoshlarga ulashmog'imiz darkor. Tabiiyki bu masalani yechish pedagogika fani uchun mas'uliyatli vazifadir.

Madaniyat taraqqiyoti natijasida, xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, umumiy ma'naviyat oshgan sari san'atga bo'lgan iste'mol qilish hissi kuchayadi. Bu borada oddiy bir misol sifatida bozorlar va savdo do'konlaridagi narsa va buyumlarni qanchalik rang-barang tasvirlar bilan bezatilishini bir ko'z oldimizga keltiraylik.

<sup>1</sup>J.G'.Yoldashev. "Xorijda ta'lim", "Sharq" nashriyoti-matbaakonserniningbosh tahririyati, Toshkent, 1995y. 25-bet



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Bularning hammasi tasviriy san'at vakillarining mehnat va ijodiy ishlari natijasidir. Haqiqatdan ham, rassomlar mehnatiga har kuni, har qadamda duch kelamiz. Ammo bu ijodkorlar faoliyatining ko'p jihatlari haqida deyarli ko'pchilik yaxshi bilmaydi ham. Shunday qilib, insonlarning kundalik turmush tarzida keng qo'llaniladigan barcha narsa va buyumlarning nafis va go'zal bo'lishiga odamlar qanchalik intilayotganligini o'zi bu mavzuning zaruriyatiga yetarli dalildir. Tasviriy san'at borasidagi nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san'at tushunchasining o'zini tahlil qilish orqali yondashish maqsadga muvofiqdir.

Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolarning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetishi inson mehnatining san'atkorona bajarilganligini bildiradi. Demak, pedagogning ham o'z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko'stsiz bajarishi san'atkorlik namunasi bo'lib hisoblanadi.

Rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni esa, shubhasiz, san'at asari deymiz. San'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy go'zallik, ezgulik sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijodkor o'zgacha izlanadi, o'zgacha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'atning o'ziga xos turlari mavjud. Adabiyot, musiqa, teatr, kino, sirk, me'morchilik, tasviriy, amaliy bezak va boshqa san'at turlari bor.

San'at tushunchasi borasida insoniyat azaldan amaliy, ijodiy ishlar va nazariy fikrlarni bildirib kelganlar. Biz ularning hammasini tahlil va talqin qilmoqchi emasmiz. Ilm – inson muammosini hal qilish yo'lidagi birinchi bosqich, axloq-ikkinchi bosqich, san'at eng birinchi bosqich, ahloq-ikkinchi bosqich, san'at eng xufiya, eng ardoqli qatlarga yetib borishga urinishdir.<sup>1</sup>

Ta'lim va tarbiya berishda tasviriy san'at tushunchasining o'zi qanday xarakterga ega ekanligi alohida ilmiy pedagogik tahlilni taqozo etadi. Ana shuning uchun hambu boradagi mavjud nazariy tushunchalar, ularning pedagogika fanidagi o'rni haqida to'xtalishimiz lozim. Tasviriy san'at-eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. U keng ma'noga ega. U o'z o'rnida haykaltaroshlik, rangtasvir va grafikakabi turlarga bo'linadi. Tasviriy san'at voqelikni, borliqni shakllar, chiziqlar, ranglar, bo'yoqlar surtmasi orqali ma'lum bir tekislikda, yuzada, makondava hokazolarda ijodkor (haykaltarosh, rassomlar) tomonidan tasvirilaydigansan'atdir. Shuningdek, tasviriy san'at monumental va dastgoh ko'rinishlarga ega. Monumental

<sup>1</sup> Hose Opetega-i-GAsset. "OdamAtojannatda", "Tafakkur" jurnali, №1, 1996 y. 118-bet. (Ozod Obidtarjimasi)



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

deyilganda, hajm jihatidanbir necha barobar katta me'morchilik, park-bog' san'atiga, shuningdek, biror-bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san'at asarlari tushuniladi. Dastgoh deyilgandaesa asosanerkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan asarlar tushuniladi, ularni xohlagan joyga qo'yish, namoyish qilish mumkin bo'ladi. Ko'pchilik bilishi lozim bo'lgan tasviriy san'at nazariyasinin gboshlang'ich bo'limlari uning tur va janrlarihamda ko'rinishlari hisoblanadi. Darhaqiqat shunday ekan, tasviriy san'atning tur va janrlari xususida ma'lumot berish alohida pedagogik qiymatga egadir. Tasviriy san'atning bir-biridan badiiylik harakteri va jihatlari bilan farq qiluvchi xususiyatlari haqida to'xtalish maqsadga muvofiq.

Tasviriy san'atning turlari bir-biridan ishlanishi, materiali, hatto ijodkorning o'ziga xos mutaxassis sifatida alohida bo'lishi tufayli ajralib turadi. Masalan: grafika ustasi bilan rangtasvirchi rassomning faoliyati, ijodiy izlanishlari bir-biridan farq qiluvchi jihatlarga ega. Haykaltarosh esa yanada o'zgacha muhitda, asbob-uskunada, hatto grafika, rangtasvir ustasiga xos bo'lmagan sharoitda ijod qiladi. Ammo tasviriy san'atning bu uchta asosiy turiga oid ijod qiluvchilar janrlarning barchasiga xos faoliyat yurita olishlari mumkin.

Hajmi, mohiyati jihatidan alohida bo'la oladigan xususiyatlarni tasviriy san'atning ko'rinishlari deb atadik. I lmiy-pedagogik tadqiqotlar hamda san'atshunoslikka oid manbalarga tayanish natijasida tasviriy san'atni ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish uchun yuqorida ko'rsatilgan uchta asosiy nomlanish bilan ta'riflashni maqsadga muvofiq deb topdik. Yana shuni alohida o'qtirish kerakki, tasviriy san'atni tur, janr va ko'rinishlarini ilmiy pedagogik jihatdan tahlil qilinishi ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviyatni har jihatdan taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bulatov S.S. Badiiy taxlil tamoyillari. Monografiya. "Fan va texnologiya" T.: 2016 yil
2. Lomov S., Amanjlov S.. Metodologiya xudojestvennogo obrazovaniya. Moskva Izd. "Prometey" 2011g.
3. A. Novikov Metodologiya xudojestvennogo obrazovaniya. M. Izd. "Azbuka" 2014 g.
4. Abdirasilov S., Tolipov N. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Aloqachi, 2007 yil. – 110 bet.
5. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik. T.: Fan va texnologiya nashriyoti: 2012 – 230 bet.
6. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Darslik. -T.: Fan, 2004.

